

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**



Ro'yhatga olingdi № 87 / 2024 yil  
" 27 " iyun

**KORPORATIV BOSHQARUV**  
**FANNING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq  
**Ta'lim sohasi:** 410 000 – Biznes va boshqaruv  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60411200 – Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

<p>3. A. Bekmurodov, B. Safarov. Qishloq joylarda savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish yo'nalishlari. T.: TDUI, 2007</p> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Малин А.С., Мухин В.И. Исследование систем управления. Учебник.-М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2005 - 399 с.</li> <li>2. Мухин В.И. Исследование систем управления. Учебник.-М.: Экзамен, 2007- 384 с.</li> <li>3. Ergashev R.X., Tursunov I.E., Ravshanov A.D., Qurbonov A.B. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik. T.: "Vogis-nashriyot", 2020. 448 b.</li> <li>4. Ганчерёнок И.И., Горбачов Н.Н., Турсунов И.Э., Панжиев С.А. Цифровая экономика: управление информационными ресурсами./ Учебное пособие./-Т.: "Vogis-nashriyot", 2020. 207 с.</li> </ol> <p><b>Axborot manbaalari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali</li> <li>2. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</li> <li>3. <a href="http://www.ziyounet.uz">http://www.ziyounet.uz</a>. axborot ta'lim portali.</li> <li>4. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi.</li> <li>5. <a href="http://www.ziyounet.uz">www.ziyounet.uz</a> - Ta'lim portali.</li> </ol>	<p>7 Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
<p>8 <b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b></p> <p><b>J.Q. Berdiyev</b> - QarMII, "Bisnes va innovasion menejment" kafedrasida katta o'qituvchisi</p>	<p>7 Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
<p>9 <b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>X.S. Muxitdinov</b> - QarMII, "Bisnes va innovasion menejment" kafedrasida professori, iqtisod fanlari doktori</p> <p><b>A.B. Qurbonov</b> - Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p>	<p>7 Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
KB3604	2024-2025	6	5	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Tanlov	O'zbek	4		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
Korporativ boshqaruv	60	90	150	
<b>I. Fanning mazmuni.</b>				
2	<p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga boshqaruv asoslarini makro va mikro iqtisodiy darajada o'rgatish asosida ularning yetuk va yuqori malakali mutaxassis bo'lishlarini hamda olingan bilimlari asosida o'qish va ilmiy izlanishlarini davom ettirishlarini ta'minlashdir.</p> <p>Fanning vazifasi - korporativ boshqaruv obyektleri. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ boshqaruvning metodologik va nazariy asoslarini o'rganishdan iboratdir.</p>			
	<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).</b></p> <p><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. "Korporativ boshqaruv" kursiga kirish</b></p> <p>Korporatsiya (lotincha corporatio - birlashish) - bu umumiy maqsadlarga erishish, birlashmada faoliyat ko'rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil sub'ektni - huquqiy shaxsni tashkil qilgan jismoniy yoki huquqiy shaxslar birlashmasidir.</p> <p>Korporatsiyalar - mulkchilikning hissadorlik shaklining zamonaviy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Unda bir necha mulkdorlar manfaatlari birlashadi, yagona maqsad doirasida investorlar kapitalari birlashtiriladi<sup>1</sup>.</p> <p><b>2-mavzu. Korporativ boshqaruv nazariyasining evolyutsiyasi</b></p> <p>Korporativ boshqaruv yirik biznes yuritish zarurati ob'ekti sifatida shakllangan. Tabiiyki, bundan oldin korporatsiyalar shakllanishining uzoq muddatli jarayoni ro'y bergan. Ma'lum bir bosqichda xalqaro hamjamiyat korporativ strukturalar joylashuvidan qat'iy nazar ularni boshqarish jarayonlarini soddalashtirish va bir xillashtirishga imkon beradigan umumiy me'yorlar va andozalar ishlab chiqishga majbur bo'ldi.</p> <p>Korporatsiyalar shakllanishi umumijahon tendentsiyalarini tahlil qilib, mutaxassislar uchta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatadilar. Har bir bosqich</p>			

<sup>1</sup> Иванова Е. А., Шнилкина Л. В. Корпоративное управление. Ростов н/Д: «Феникс», 2007  
<sup>2</sup> Курбанов Х.А. Корпоративные финансы. Г.: «Спектрлитинформ», 2007/к. 66.

jamiyatda o'sha paytda shakllangan korporatsiyalarga xos jihatlarni aks ettiradi.

**3-mavzu. Korporativ boshqaruv zamonaviy amaliyoti va modellari**

Korporativ boshqaruv xalqaro tamoyillari quyidagicha ifodalangan. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) korporativ amaliyoti va oqilona ishblarmonlik me'yorlari. Bu hujjat 1997 yil Evropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan "Kupere end Laybrand" kompaniyasi bilan birlashmada kompaniyalarga nufuzli kreditorlar va investorlar tomonidan investitsiya qarorlari qabul qilishda qaysi jihatlarga ko'proq hisobga olinishini yaxshi tushunish maqsadida tayyorlangan. ETTB korporativ amaliyoti va oqilona ishblarmonlik me'yorlariga muvofiq kompaniyalarga manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlarda quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:

**4-mavzu. Korporativ strategiya va ijtimoiy mas'uliyat**

Dunyoda raqobat bo'lgan davrda, hamma mahsulot gomogendir. Sanoqsiz to'liq axborotlarga ega bo'lgan sotuvchi va sotib oluvchilar mavjud, lekin sotib olinadigan tovarlarga hech qanday ta'sir eta olmaydi. Bunaqa dunyoda foydaga hech qanday talab yo'qligi bilan teng strategiyaga ham hech qanday talab yo'q.

Ko'pchilik bozorlarda kabi, sof raqobatga xech qanday qiyinchilik yo'q. Ular defitsit va assimetrikdir. Ularda sotuvchi va sotib oluvchilarni cheklanganliklaridadir. Mahsulot gomogenligidadir, axborotlarni foydalaniligidadir, yoki qandaydir firmaning boshqalariga nisbatan vakolatlarga egaligi va ko'chiligidadir, boshqalar ishlab chiqarmaydigan mahsulot ishlab chiqarishi, yoki olib kelinishi cheklanganligidadir. Mustaxkam ishlab chiqilgan strategiya firmani, yaxshi tashkil etilmagan bozorda yuqori foyda oladigan strategiyalarni ishlab chiqqan xolda o'zining talablarini qo'ya oladi. Bunday vaziyatda strategiya ikkita muhim o'rinni egallaydi.

**5-mavzu. Davlatning korporativ sektorda qatnashishi**

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida ba'zi bir A.Jlar ma'lum bir miqdordagi aksiyasiga davlatning egalik qilishiga yagona sabab "bozordagi yo'qotishlar"ning (market failure) mavjudligidir. Bu bozorlarda jamiyat manfaatlari va yo'qotishlari xususiy manfaat va yo'qotishlardan ustun bo'ladi. Bunday holat, masalan, bozor tuzilmasining monopollashtirish holida ro'y beradi. Bunda xususiy mulkdorning intilgan foydani imkoni qadar oshirish maqsadi jamiyat uchun (erkin raqobatchilik modeliga nisbatan) mahsulot miqdorining pasayishiga va nisbatan yuqori narxlarda sotilishi shaklida zararni anglatadi.

**6-Mavzu O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari**

Korporativ boshqaruvning mexanizmlari davlat tartibga solish organlari, sud organlari va ishblarmonlar doiralarida ishlab chiqilgan ma'lum bir qo'lda, me'yor va andozalari asosi va doirasida ishlaydi. Ushbu qo'lda, me'yor va andozalarning majmuasi korporativ boshqaruvning institutsional asoslarini

tashkil qiladi.

#### 7-mavzu. Korporativ boshqaruv organlari

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar (axborotlar) ro'yxatini jamiyatning kuzatuv kengashi belgilaydi.

#### 8-mavzu. Mas'uliyati cheklangan jamiyatni tuzish va faoliyatini boshqarish xususiyatlari

Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) deb bir yoki bir necha shaxslar tomonidan tasis etilgan, ustav fondi tasis xujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va o'z ulushlari qiymati doirasida jamiyat faoliyati bilan bog'liq ziyon ko'rish tavakkalchiligini o'z zimmalariga oladilar.

#### 9-mavzu. Korporativ nizolar

Har qanday nizoning mohiyatini tomonlar o'rtasida kelishuvning yo'qligi sifatida ta'riflash mumkin. Korporativ munosabatlar sub'ektlari o'rtasida manfaatlar muvozanatining yo'qligi korporativ nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

Korporativ nizolar deganda jamiyat aksiyadorlari o'rtasida, jamiyat aksiyadorlari va menejerlari o'rtasida, investorlar (potensial aksiyadorlar) va jamiyat o'rtasida vujudga keladigan, quyidagi oqibatlardan biriga olib keladigan kelishmovchiliklar va tortishuvlar tushumiladi:

#### 10-mavzu. Korxonalar ni restrukturizatsiyalash

Korxonani restrukturizatsiyalash - bu tabiiy jarayon bo'lib, korxonaning yangi sharoitga moslashishga va moliyaviy-iqtisodiy sog' lomlashtirishga yo'naltirilgan chora tadbirlar majmuasidir. Bu jarayon korxonada menejerlari, mulk egalari yoki kreditortlar tomonidan, korxonani yangilash va sog'lomlashtirish maqsadida, korxonaning kelajakda o'rnini belgilovchi maqsadlardan kelib chiqib olib boriladi.

#### 11-mavzu. Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash

Ko'plab kichik va yirik kompaniyalar uchun korporativ boshqaruv andozalari zaruriy ehtiyoj hisoblanmaydi. Ularning korporativ boshqaruv sohasidagi birlamchi vazifasi amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini yaxshilash hisoblanadi. Aytib o'tish kerakki, korporativ xulq-atvor Kodeksida bayon qilingan andozalarni joriy qilish korxonalar tomonidan aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organlari ishini ta'minlovchi va nazorat qiluvchi qator qo'mitalar tashkil qilishni, xodimlar shtati ro'yxatiga direktorlar Kengashi va uning qo'mitalari faoliyatiga ko'maklashuvchi korporativ kotib lavozimini kiritishni, direktorlar Kengashi tarkibiga mustaqil direktorlar kiritishni va h.k.ni talab qiladi.

#### 12-mavzu. Korporativ boshqaruvda axborot va kommunikatsiya

Axborotlarni boshqaruv- bu kompaniyaning ma'lum darajadagi qaror qabul qilish demakdir. Bugungi kunda hayotimizni kompyuter texnikasi, axborot texnologiyalari, Internet, mobil telefon aloqasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish haqida gapirganda, yuqori texnologik telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish biz uchun muhim strategik ahamiyatga ega ekanini alohida qayd etish darkor. Bu yo'nalishda 2009 yilda 12 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish boshlandi.

#### 13-mavzu. Aksiyadorlik jamiyatlari va ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda audit va ichki nazorat tizimi

"Nazorat - boshqaruv vazifalaridan biridir" degan tezisni qayta ko'rib chiqishga etarlicha uslubiy-nazariy yoki amaliy asoslar mavjud emas. Ayrim manbalarda mualliflar kontrollingni «boshqaruv faoliyatini boshqarish» sifatida qarab, kontrollingning maqsadini «boshqaruvchilik jarayonini korhona oldida turgan barcha maqsadlarga erishishga yo'naltirish» da ko'rmoqda.

#### 14-mavzu. Korporativ madaniyat

«Tadbirkorlik madaniyati» tushunchasiga eng to'liq va mufassal ta'rifni V.D.Kozlov «Tashkiliy madaniyatni boshqarish» kitobida bergan bo'lib, «ushbu tashkiliy struktura xodimlari xulq-atvori xususiyatlari, yakka tartibdagi va guruh manfaatlari, urf-odat va an'analar, rasmiy va norasmiy faoliyat me'yorlari va qoidalari, rahbariyat uslubi, xodimlarning mehnat sharoitlaridan qoniqqanlik ko'rsatmalari, o'zaro hamkorlik darajasi tizimi» deya ta'kidlagan. Shunday qilib, korporativ madaniyat kompaniya qadriyatlari, o'zaro munosabatlar uslubi, muhit qanday ekanligini belgilab beradi.

#### 15-mavzu. Korporativ boshqaruv muammolari va rivojlanish istiqbollari

Turli mamlakatlarda korporatsiyalarni boshqarish tarkibi korporativ munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik asoslari, muayyan mamlakatda yuzaga kelgan xarakterli boshqaruv tarkibi kabi omillar bilan belgilanadi. Har bir mamlakatda korporatsiyalarni boshqarish tarkibi uni boshqa mamlakatlar tarkibidan farqlab turadigan ma'lum bir elementlarga ega.

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu. "Korporativ boshqaruv"-kursiga kirish
- 2-mavzu. Korporativ boshqaruv nazariyasining evolyutsiyasi
- 3-mavzu. Korporativ boshqaruv zamonaviy amaliyoti va modellari
- 4-mavzu. Korporativ strategiya va ijtimoiy mas'uliyat
- 5-mavzu. Davlatning korporativ sektorda qatnashishi
- 6-Mavzu O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari

7-mavzu. Korporativ boshqaruv organlari

8-mavzu. Mas'uliyati cheklangan jamiyatni tuzish va faoliyatini boshqarish xususiyatlari

<p>- korxonaning ichki va tashqi muhitlarini tahlil qilish modellari, korporativ boshqaruvda tadqiqot usullari samaradorligini oshirish va takomillashtirish uslubiyatlari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i></p> <p>- korporativ boshqaruvda usullarining yangi analitik usullarini ishlatishni; raqobat muhitini tadqiq etish, korporativ boshqaruvda usullarini rejalashtirish hamda ijrosini ta'minlash usullaridan foydalanishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i></p> <p>- korporativ boshqaruvda usullarini rejalashtirish va ijrosini ta'minlash usullarini qo'llay olish, korporativ boshqaruvda usullarini ijrosini ta'minlash va ularning natijalaridan bo'yicha yechimlar qabul qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i></p>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, ofaliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>	<p><b>6 Asosiy adabiyotlar:</b></p> <p>1. Иванова Э и др. Корпоративное управление. Родов на Дону "Феникс", 2008г.</p> <p>2. В. Беркин, N. Pulatov Aktsiyadorlik jamiyatlari. T.:TDIU, 2007</p>

<p>9-mavzu. Korporativ nizolar</p> <p>10-mavzu. Korhonalarni restrukturizatsiyalash</p> <p>11-mavzu. Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash</p> <p>12-mavzu. Korporativ boshqaruvda axborot va kommunikatsiya</p> <p>13-mavzu. Aksiyadorlik jamiyatlari va ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda audit va ichki nazorat tizim</p> <p>14-mavzu. Korporativ madaniyat</p> <p>15-mavzu. Korporativ boshqaruv muammolari va rivojlanish istiqbollari</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.</b></p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <p>"Korporativ boshqaruv" kursiga kirish</p> <p>Korporativ boshqaruv nazariyasining evolyutsiyasi</p> <p>Korporativ boshqaruv zamonaviy amaliyoti va modellari</p> <p>Korporativ strategiya va ijtimoiy mas'uliyat</p> <p>Davlatning korporativ sektorda qatnashishi</p> <p>O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari</p> <p>Korporativ boshqaruv organlari</p> <p>Mas'uliyati cheklangan jamiyatni tuzish va faoliyatini boshqarish xususiyatlari</p> <p>Korporativ nizolar</p> <p>Korhonalarni restrukturizatsiyalash</p> <p>Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash</p> <p>Korporativ boshqaruvda axborot va kommunikatsiya</p> <p>Aksiyadorlik jamiyatlari va ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda audit va ichki nazorat tizim</p> <p>Korporativ madaniyat</p> <p>Korporativ boshqaruv muammolari va rivojlanish istiqbollari</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p><b>3</b></p> <p><b>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p>
--	--